
Garovga berib yuborilgan "Tracker" o'zganing xonadonidan topildi

Buvayda tumanida yashovchi fuqaro M.A "Kapitalbank" AT bankining Qo'qon filialidan avtokredit shartnomasi asosida "Tracker" avtomashinasini sotib olgan. Biroq M.X kredit shartnomasi bo'yicha kredit qarzlari muddatida to'lanmasdan kelgan.

Shunga ko'ra, Fuqarolik ishlari bo'yicha Qo'qon tumanlararo sudining ijro varaqasiga asosan qarzdor M.A.dan jami 234,3 mln. so'm undirilishi va undiruvni qarzdorga tegishli "Tracker-2" rusumli avtomashinaga qaratilishi belgilangan.

Byuroning Buvayda tuman bo'limi davlat ijrochilari tomonidan olib borilgan ijro harakatlari davomida mazkur avtomashina qarzdor M. A. ning yashash xonadonidan topilmagan.

Olingan ma'lumotlarga ko'ra, ya'ni qarzdorning bildirishicha, M. A. tomonidan "Tracker-2" avtomashinasi 7 ming AQSH dollari qarzi evaziga boshqa bir fuqaroga garov sifatida berib yuborilgan.

Sud hujjatining ijrosini ta'minlash maqsadida Byuroning Buvayda tuman bo'limi tomonidan o'tkazilgan tezkor tadbir natijasida "Tracker-2" avtomashinasi Buvayda tumani Jov qishlog'ida yashovchi D.A.ning yashash xonadonidan topilib, jarima maydoniga olib kirildi.

Byuroning Buvayda tuman bo'limi boshlig'i Sh. I. Qunduzov

2024-11-14 13:21:47